

ЎРОЛ ТАНСИҚБОЕВ УЙ МУЗЕЙИ

Mirxakimova Feruza Xoldorjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq rassomi, badiiy akademianing chinakam a'zosi, O'zbekiston Rassomlar uyushmasining raisi, akademik O'rol Tansiqboevning uy muzeyining tashkil etilishi tarixi, muzey ekspozitsiyasi, eksponatlari tahlili orqali ijodkorning ijodiy faoliyati haqida batqasil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: uy muzey, eksponat, ekspozitsiya, rasm, etyud, mehmonxona, ijodkor, yodgorlik, kolleksiya, zal, qaror, fotoxujjat.

ДОМ-МУЗЕЙ УРАЛ ТАНСИҚБОЕВА

Mirxakimova Feruza Xoldorjon kizi

Doktorant Namanganского государственного университета

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация об истории создания домашнего музея народного художника Узбекистана, действительного члена Академии художеств, председателя Союза художников Узбекистана, академика Орола Тансиқбоева. Экспозиция и экспонаты дома-музея.

Ключевые слова: дом-музей, экспонат, экспозиция, картина, этюд, гостиница, создатель, памятник, коллекция, зал, решение, фотодокумент.

URAL TANSIQBOEV HOUSE MUSEUM

Mirkhakimova Feruza Kholdorjon kizi

Doctoral student of Namangan state university

Annotation: This article provides detailed information about the creation history of the home museum of the People's Artist of Uzbekistan, a true member of the Academy of Arts, the chairman of the Union of Artists of Uzbekistan, academician Urol Tansikboev, through the analysis of the home museum exposition and exhibits.

Keywords: house museum, exhibit, exposition, painting, etude, hotel, creator, monument, collection, hall, decision, photo document.

O'zbekiston xalq rassomi, badiiy akademianing chinakam a'zosi, O'zbekiston Rassomlar uyushmasining raisi, akademik O'rol Tansiqboev asarlari hamisha tasviriy san'at ixlosmandlari badiiy didining eng yuqori pog'onalarida turgan. Ijodkorning uy muzeyiga kirar ekansiz ijodkorning bu xovlida qisqa muddat yashab ijod etgan bo'lsa-da, ijodkor ma'naviy olami, didi, fe'liyati ishkom uyda o'z izlarini qoldirishga ulgurgan edi. O'rol Tansiqboev xovlida 1967-1974 yillarda hayotining oxirigacha yashagan. Rafiqasi Yelizaveta Yakovlevna Tansiqboeva tashabbusi bilan musavvir xotirasini abadiylashtirish maqsadida 1976 yilda me'moriy yodgorlik o'rnatildi. O'zbekiston Hukumatining 1979 yil 13 dekabrdagi № 838 sonli "SSSR xalq rassomi, O'zbekiston Respublikasi Akademiyasining haqiqiy a'zosi uy-muzeyini tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga binoan uy muzey 1981 yil 16 yanvarda memorial muzey o'z faoliyatini boshladi. [1]

Uy muzeyining umumiyy maydoni 377 kvadrat metrni tashkil qiladi. Ko'rgazma va ko'rgazma maydoni - 357 kv.m. Mablag'larni saqlash uchun maydon 20 kvadrat metrni tashkil qiladi. Uy muzeyning asosiy bino 2 ta bo'lib:

1.Yozgi uy -rassom 1967 yildan 1974 yilgacha yashagan bino olti qismdan iborat bo'lib, birinchi qavatda oshxonha va ikki xonadan iborat.

2. Ma'muriy binolar (ma'ruza zali), ko'rgazmalar zali

1994-yilda O'rolTansikboev tavalludining 90 yilligi munosabati bilan ochilgan navbatchilar xonasi, isitish tizimi kollektori joylashgan yordamchi xona. [2]

Uy muzeyning xovlisida mo'jazgina ijodkor tomonidan ekilgan daraxtlardan tashkil topgan bog' ham yodgorlikning bir qismi hisoblanadi. Kirishdagi hovlining chap qismida 110 yillik shamshot daraxti mavjud bo'lib, uning bu erda o'sishi bejiz emas, daraxt musavvирning oldingi uyidan ko'chirilib

o'tkazilgan. Bugungi kunda muzey ekspozitsiyasida rassom qalamiga mansub 400 dan ortiq asarlar mavjud. [3] Unda rassom ijod namunalari ekspozitsiyasi, rassom hayoti va ijodiga oid hujjatli materiallar, molbert, bo'yoqlar uchun stolchalar, fotohujjatlar va musavvirning chet el muzeylarida saqlanayotgan asarlaridan nusxalar bor. [4]

Uy muzeyga kirishdagi dahlizdan chap tomondag'i xonada ijod xonasi joylashgan. Xonada ijodkorning devorlarda ilingan rangtasvir asarlari orqali O'rol Tansiqboevning turli davrlardagi faoliyatiga tegishli. Bundan tashqari bu uyda musavvir hayoti va ijodini aks ettiruvchi katta hujjatli materialni o'zida mujassamlashtirgan arxiv suratli hujjatlar musavvir asarlari, reproduksiyalar joylashtirilgan. Rassomning ijodkor sifatida shakllanishi va hayotining muhim qirralari bilan tanishishimiz mumkin.

Muzeysda jami 4550 eksponat mavjud yuo'lib, rassomga tegishli bo'lgan hujjatlar, kutubxonasi va èzishmalari kiradi.[5] Uy-muzeyning asosiy fondi hujjatlar, kutubxona, fotosuratlar, uy-ro'zg'or buyumlari va etnografiya, amaliy san'at, rangtasvir, grafika va haykaltaroshlikdan iborat. Uning ustaxonasida namoyish etilaètgan albomlarda atoqli mo'yqalam ustasining haèt va ijod yo'li to'g'risidagi 2500 dan ko'proq fotosuratlar va hujjatlar to'plangan.[6] Uy muzey eksponatlari tarkibida ijodkorning asarlaridan tashqari u foydalanilgan buyumlar: jovon, bo'yoqlar, kist, stol, stul, va boshqa maishiy buyumlar xam mavjud.. Ayniqsa, uning stol ustidagi mashinka, sharq rassomi qiyofasidagi haykalcha hamda unga tegishli bir qator jihozlar tashrif buyuruvchilarga qiziqish uyg'otadi. Ikkinci qavatda O'rol Tansiqboev o'z qo'li bilan yaratgan stol va stul joy olgan. [7]

Ikkinci qavatda rassomning yotoqxonasi joylashgan bo'lib xonaga kiraverishda ijodkorning turli xil kartinalari devorga ilingan. Kartinalar orasida "Issiqko'l", "Ryabina", "Xumsonda" kabi kartinalar xonaga o'zgacha ko'rk bag'ishlab turibdi. Xonadagi mebellarning did bilan joylashtirilgan bo'lib, yotoq krovati va kiyim javoni «Riga» davlatida ishlab chiqarilgan ekan.

Keyingi kichik hujra ijodkorning grafikada ishlagan kartinalariga ajratilgan. Ko'pchilik rassomni faqat rangtasvirchi sifatida taniydi. Bu xona burchagidagi ko'hna sandiq e'tiborni tortadi. Bu sandiq ijodkorning buvisidan qolgan bo'lib, unda Tansiqboevga tegishli shaxsiy buyumlar saqlanlar ekan.

Hujraning yonida yopiq ayvonda rassomning oxiriga etkazilmagan asari, bir necha kartina va yana buvisidan qolgan va erga solingan antiqa gilam mavjud.

Uz mavzusini topa olgan O'rol Tansiqboev, ijod yo'lini anglab olishda, memorial ustaxonadagi ko'rgazmaga qo'yilgan asarlar katta yordam beradi.

Ustaxonada ekspozitsiya ma'lum bosqichda joylashtirilmagan. Estetik tomonlama yondashilgani bois, ko'proq kartina hajmi va manzara manerasiga ahamiyat qaratilgan. 1930-1935 yillardagi dastlabki izlanishlar davrida u avangard uslubida ijod qiladi. Kichik etyudlardan iborat xuddi ana shunday asarlar rassomning ilk katta qadamlari sifatida kiraverishda o'ng qo'lda joylashtirilgan. [8] Kartinalarda ushbu uslubga xos dekorativlik, turli yo'nalishlar uyg'unligi yaqqol sezilib turadi. Uning 1940-1950 yillardagi ijodiy faoliyatida sof realizm o'z kuchini ko'rsata boshlaydi. Uyning keyingi qismida joylashtirilgan "Qo'shiqlar", "Mening o'lkam", "Sharshara" "Chimyondagi etyudlar" kabi asarlarida kompozitsiya va perespektiva aniqligi, eng kichik detallarning ham tabiiy ishlanganligini kuzatish mumkin.

Xona to'rida O'rol Tansiqboevning 1960 - 1970 yillarning birinchi yarmi, umrining so'nggi yillarida yaratgan asarlaridan bir necha namunalar joylashtirilgan.

Ustaxonadan, shuningdek, rassomning do'stlari hamkasblari davrasidagi fotosuratlar, o'zingin avtoportreti Hamda burchaklarda kichik byusti o'rinni olgan. Merabashvili tomonidan ishlangan portretda Tansiqboev olami, xarakter chizgilari va ruhiyati aks etgan bo'lsa, V.Akudin ishlagan parodiyyada rassom xarakteri bo'rttirib ko'rsatilgan.

Bundan tashqari qavat-qavat taxmonli stolda rassomning ish qurollari mavjud. Suv bo'yoq, moybo'yoq, palitra kistlar-barisi o'z holicha saqlangan. Aytishlaricha, ularning ba'zilarini rassom o'z qo'li bilan yasagan ekan. Ustaxonaning yana bir burchagida ijodkorning davlat tomonidan taqdirlanib topshirilgan bir qancha orden, medallar saqlanadi. Ular orasida sobiq Oliy Sovet deputatligi nishoni ham borki, bundan O'.Tansiqboev hayotiy faoliyati ijtimoiy hayotning turli jabhalarida davom etganligi ko'rindi.

1958 yili "Qayroqqum GESI" asari uchun berilgan kumush medali va boshqa Qator medal va faxriy yorliqlarini sanab o'tish mumkin. Uning ijodi Qanchalik sermaHsul bo'lsa o'z davrida munosib baholangan. O'zbek tasviriy san'atini rivojiga qo'shgan hissasi uchun vafotidan keyin ham 2002 yil 22 avgustdagi "O'zbek milliy madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan marhum adabiyot va san'at

namoyandalarini mukofotlash to‘g“risida” gi PF-2916 sonli farmoniga ko‘ra “Buyuk xizmatlari uchun” nishoni bilan taqdirlandi. [9]

Ustaxona O‘rol Tansiqboev shaxsiyati, ijod va hayot yo‘li haqida keraklicha tasavvur uyg‘otadi.

Mehmonxona haqida gapirganda devorlariga ham musavvirning beqiyos go‘zallik, maftunkorlik aks etgan kartinalari ilingan. Xona markazida mehmon kutish uchun stol-stul, to‘rda chinnivorlar bilan bezatilgan mebellar ijodkor xashamatni yoqtirmagani uchun keyin qo‘yilgan. O‘. Tansiqboeva rassomning o‘ziga xos kamtarligini ko‘rsatish maqsadida oddiy stelajlarga oyna o‘rnattirib bor buyumlarini namoyish etgan. Kitob javonlarida badiiy adabiyot va san’atga oid maxsus adabiyotlar mavjud.

Tabiatning ana shu erka va nozanin gullari o‘rtasiga O‘. Tansiqboevning baland postamentga byusti o‘rnatalgan. Byust 1976 yilda moskvalik haykaltarosh Abramsumyak tomonidan ishlangan. Ko‘rinadiki, atirgullarni rassom juda yoqtirgan va bu boni ham o‘z qo‘llari bilan barpo Qilgan ekan. Unda bir xurmo daraxti ham qad rostlagan. Toshkent shahrida hali bu meva daraxti noyob bo‘lgan paytlarda rassom ko‘chatni birinchilardan bo‘lib, Surxondaryodan keltirgan deyishadi. katta-katta barglari bilan hovliga soya-salqin solib, fayz bag‘ishlagan xurmo muhtasham ko‘rgazmalar zaliga yo‘l ko‘rsatadi.

Turli tantana va tadbirlarga mo‘ljallab uyushtirilgan ko‘rgazmalarda rassomning shu mavzudagi asarlar bilan to‘ldiriladi. Shunday ko‘rgazmalardan biri “9 may Xotira va Qadrlash” kuniga baG‘ishlab ochilgan ekan. Rassom urushda bo‘lmagan bo‘lsada, insonparvarlik ko‘magi berib turgan. Ikkinci jahon urushi manzaralari tasvirlangan asarlarda, olovli to‘qnashuvlar va vatan uchun astoydil kurashayotgan qahramonlar ifodalangan.

Ikkinci qavatning yo‘lagida ham arxiv burchagi bor. Bu erda ham fotoreproduksiyalarni ko‘rish mumkin. 1973 yilgi IV rassomlar s’ezdida qatnashgan Uzbekiston mo‘yqalam ustalarining fotosuratlari, rassom o‘limidan to‘rt kun avval 1974 yili 14 aprelda tushgan suratining kattalashtirilgan nusxasi, taniqli vrach terapevt Aleksey Nazarov tomonidan sovg‘a qilingan fortopiano ham shu erdan joy olgan.

Har ikki qavatda ham vitrinalarga kichik-kichik etyudlar, kartinalar tartib bilan joylashtirilgan. Fond unchalik katta bo‘lmasada, maxsus stelajlar o‘rnatalgan.

Muzey yagona maqsad, O‘rol Tansiqboev merosini saqlash va ommaga targ‘ib qilish uchun faoliyat yuritadi. U poytaxtda birinchi tashkil etilgan memorial muzey hisoblanadi.

Muzey eksponatlardan tashqari muzey tarkibida O‘rol Tansiqboev hayoti va ijodiga bag‘ishlangan turli ocherk, maqolalar, turli yozma manbalar saqlangan. Bunga misol sifatida biz “Vspominanie Ural Tansykbayev” asarida O‘rol Tansiqboev haqida[10] Rempel, Rahim Axmedov, I.Savitskiyning rassom hususida bildirilgan fikrlar, xotirasida qolgan esdaliklari yoritilgan. Ularga misol qilib quyidagilarni aytish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, uy muzey ekspozitsiyalari orqali rassomning o‘scha paytda yashagan muxiti va ijodi haqida batafsil ma’lumot beradi. O‘rol Tansiqboev butun hayoti o‘tgan uy, ustaxona, ko‘rgazmalar zali va undan joy olgan eksponatlar hozirgacha tashrif buyuruvchilarga katta madaniy meros sifatida holisona xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Adabiyotlar ro‘yhati

- 1.Фонд Р - 2487, Опис - 3, жилд - 5151, бет-195
2. Фонд М - 7, Опис - 1, жилд - 298, бет-2
- 3.Абдуллаева С. Дом музей Урала Тансыкбаева// Веч. –Ташкент.-1987, 3 марта. Нар.худож. СССР. Д. Академии художеств СССР. лаурет .Гос премии Узб СССР.
- 4.Дом музей Урала Тансыкбаева// Веч. –Ташкент. 1987, 3 марта.
- 5.Назарова Дилноза. Мемориал уй музейлари хақида. Finland, Helsinki international scientific online conference “Sustainability of education socio-economic science theory”. 240 -245pp.
- 6.Гласс Ю.И. Тошкент музейлари: (Справочник-йўлкўрсаткич). – Тошкент: Ўзбекистон. 1983. – Б. 61.
- 7.Открыт Дом-музей У. Тансыкбаева: [Художник] Узбекистана, 1981, 17 Янв.
- 8.Плевакин Б. Большое сердце Художника. К 80 Летнюю со дня рождения народного художника УзССР и Урала Тансыкаева. Правда Востока, 1984, 12 июня.
- 9.<https://lex.uz/ru/docs/2369426>
- 10.Источник: Урал Тансыкбаев. Воспоминания, документы. Ахмедов Р.Старейшина узбекской живописи. -Ташкент.: Гафура Гуляма, 1988, - С.22-24.